



FAXRIYORNING SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI

Ergasheva Habiba O‘ral qizi

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek zamonaviy she‘riyatida o‘ziga xos uslub va yo‘nalishga ega bo‘lgan ijodkor Faxriyorning so‘z qo‘llashdagi zukkoligi, so‘zning nozik ma‘no qatlamlarini mahorat bilan yoritib berishi hamda sof turkiy tilga oid so‘zlarni qo‘llash orqali she‘rlarining ta‘sir kuchini yana-da oshirishga intilishi tahliliy misollar yordamida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *umtilish, ayroliq, uchoq, dabdirash, kungay, ishtahasi karnay, to‘rkillamoq, tinjiramoq, love-ullaydi, o‘ttegisiz.*

Adabiyot – so‘z orqali badiiy tasvirlash san‘ati ekan, badiiy til dastavval, obrazlilik xususiyati bilan namoyon bo‘ladi, ya‘ni hayotning jonli manzarasini yaratadi va ko‘rsatadi. “Adabiy asarni yaxlit, jonli qiluvchi asosiy kuch – badiiy tildir. U shuning uchun ham badiiy asarning hamma hujayralarida yashaydi, shu hujayralarning tirikligini ta‘minlaydi”.¹ Shunday ekan har bir ijodkor, ayniqsa, shoir so‘z tanlashda juda ehtiyotkor bo‘lishi kerak. Chunki, so‘z ma‘no nozikliklariga ega bo‘lib, shoir ifodalamoqchi bo‘lgan mazmundan ayricha bir ma‘no bildirishi ham mumkin.

Faxriyor ijodi bilan yaqindan tanishish asnosida uning milliy ruh, milliy til masalasiga alohida e‘tibor qaratishining guvohi bo‘lamiz. Buni shoir ijodida imkon qadar o‘zbekona so‘z va iboralar, afsona va asotirlardan o‘rinli foydalanilganida ko‘rishimiz mumkin. Faxriyor bilan bo‘lgan bir suhbatda shoirga “Boshqa tilda ham she‘r yozishga harakat qilib ko‘rganmisiz”, deb savol berishganda, “bu hatto xayolimga ham kelmagan, o‘zbek tilining leksik imkoniyati yetarli deb o‘ylayman”, deb javob bergan edi. Ana shunday keng imkoniyatdan unumli foydalana olayotgan ijodkor shuning uchun ham o‘z uslub va yo‘nalishiga egadir, ehtimol.

Shoir ijodida o‘ziga xos so‘z o‘yinlari, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarning imkoniyatlaridan keng foydalanish, o‘ziga xos topilma so‘zlarni qo‘llash, xalq og‘zaki ijodiga murojaat etish holatlariga ko‘plab guvoh bo‘lamiz. Asar tili ijodkor uslubini belgilab beruvchi eng muhim vosita bo‘lganligi sabab badiiy tahlilda til masalasiga alohida e‘tibor qaratish o‘rinlidir. Faxriyor she‘riyati degan jumlani eshitganimizdayoq Faxriyorning butun shaxsiyati – ijodiy uslubi ko‘z oldimizda

¹ Хотам Умуров. Адабиёт назарияси. – Т.: Шарқ, 2002, 142-бет



gavdalanadi. Chunki shoir o'zbek she'riyatida o'z so'zi va yo'nalishiga egadir, u boshqalarni takrorlamaydi, boshqalardan ijodiy ozuqa olmaydi. "Uslubni ataylab yaratib bo'lmaydi. Mehnat va qunt tufayligina haqiqiy ijodkor ruhining shakli yozganlarida ufura boshlaydi. Uslub – iste'dodning ko'rinishi".² Usmon Azim ijodkor uslubi haqida juda o'rinli fikrlarni qayd etgan. Adabiyotshunoslikda J.Byuffonning "uslub – odam" degan jumlasini keng ommalashgani ham bejiz emas. Faxriyor she'rlarida so'zning ma'no nozikliklari, maqol va iboralardan o'rinli foydalanilgan. Jumladan, misralarda *umtilish* (intilmoq, harakat qilmoq), *ayroliq* (ayriliq), *eminlik* (erkin, tinch holatli), *oqiziq, uchoq* (mustaqillikning dastlabki yillarida samolyot so'ziga muqobil tarzda qo'llangan, ammo vaqtlar o'tib o'zini oqlamagan), *dabdirash* (dovdirash, kutilmagan holatda hayajonga tushib qolish) kabi bir qancha so'zlarni qo'llaydiki, bularning ayrimlari shevaga xos so'zlar bo'lsa, qolganlari shoirona topilma mahsulidir. Shuningdek, she'rlarda Sharq, G'arb, Shimol va Janub so'zlariga nisbatan *Chiqish, Botish, Kungay, Tersgay* so'zlarining qo'llanilishi ham ijodkorning o'ziga xos uslubidir.

Faxriyorning "Dardning shakli" va "Izlam" to'plamlaridagi she'rlarda shoir uslubigagina xos bo'lgan quyidagi holatlar o'z aksini topgan:

"Karnay bo'lsin ishtaha" ["Dardning shakli" 26-b.] xalqimiz orasida ko'p qo'llanadigan "ishtahasi karnay" iborasining she'rga moslashgan shaklini ko'ramiz. "Oyni etak bilan yopib bo'lmaydi" [36] jumlasini ham bizga xalqona iborani eslatadi.

"Majnun bo'lgan shu tollar guvoh" [22] jumlasida shoirning so'z qo'llash mahoratiga tan bermay iloj yo'q. Chunki, majnuntol so'zini bevosita qo'llamasdan, bu so'z tolni majnunga aylanishidan paydo bo'lgan, degan mazmunni anglatgandek bo'ladi.

"Yurak g'uncha emas, tugib oldi musht" ["Izlam" 33-b.] jumlasida she'riyat uchun an'anaviy tasvirga aylangan yurakning g'unchaga qiyoslanish holati rad etilib, tugilgan mushtga o'xshatilyapti. Bu bilan ijodkor o'zigacha bo'lgan tashbeh qoliplarini inkor etib, yangi o'xshatmalarni paydo qilyapti. She'riyatimiz tarixida nasim – shamol, aksariyat hollarda ijobiy ma'no ifodalagan, ya'ni muhabbatni yorga eltuvchi vosita sifatida tasvirlangan. Faxriyor ijodida esa shamolga "farrosh" nisbati berilishi ajablanarli holat:

Seni suygan kunlarim
to'kiladi xazonday.
Uni yig'ib olmaydi
farrosh shamol azonda. [97]

² Usmon Azim. S'ung'uzlar. – T.: ILM-ZIIE-ZAKOVAT. 2020, 226-bet.



Bizga tanish bo'lgan ramziy ifoda kutilmagan tus olishi, an'anaviy tashbehlardan kechinib, yangi o'xshatmalarni qo'llash Faxriyor lirikasiga xos xususiyat bo'lib, bu bizga shoir uslubini eslatib turadi. She'rda turli tasvir vositalari, majoziy obrazlarni qo'llash har bir ijodkorning tasavvur olamiga bog'liq, albatta. Shuning uchun ham she'riyatda tashbehlar turfa, qiyofalar o'zgachadir. Aleksandr Genis "Qalb fotografiyasi" nomli maqolasida quyidagi fikrlarni keltirgan: "She'rdagi har bir buyum bizni kerakli yo'nalish sari sudraydi-yu, lekin u yo'l belgisi kabi muayyanlikka ega emas. Yo'l ko'rsatar ekan, buyum o'zining bitmas-tuganmas va bayon qilib bo'lmaydigan hayoti bilan yashashdan to'xtamaydi. Ayni shu metafizik qoldiq shoirga dunyoning donoligini o'zi tushunmaydigan bir tilda aytib berishiga imkon beradi."³

Ijodkor badiiy tilining yana bir o'ziga xosligi shundaki, she'rlarida o'z shevasiga oid so'zlardan foydalanib, ularga qo'shimcha izoh berib ketadi. Quyida ana shunday shevaga oid so'zlar bilan tanishamiz: "Bahor kelar dalalarga *to'rkillab*" [45]. Bu so'z boshqa uyga kelin bo'lib ketgan qizning ota uyiga ilk marta mehmon bo'lib kelish holatini izohlaydi. "Sopol sinig'iday *tinjirar* hayot" [55] yarqiramoq, jilvalanmoq ma'nolarini ifodalovchi ushbu so'z xalq og'zaki ijodida ham uchraydi, ya'ni "Ravshan" dostoni qahramoni Zulxumorning ta'rifida "Jamoli chillaning qoriday *tinjirab*, yaltirab o'tirur" tarzida qo'llanilgan. "Men senga yomg'irlar bo'lib *elandim*" [57], misrada yalinmoq so'zining shevadagi variantidan foydalanilgan. "*Cho'ponallavich*" - cho'ponni aldovchi qush [112], "Xudoga qadrlar tilab *tovungan*" [226] - topinmoq so'zining shevaga xos variant. "Yuragimni armon *yolmadi*" [98] misrasida adabiy tildagi yamlamoq so'zining ijodkor shevasiga xos vaarianti qo'llangan. Bunday misollar Faxriyor ijodida ko'plab topiladi. Zero, ifoda ta'sirchan chiqishi har qanday ijodkor o'z tilini nafaqat adabiy tildagi, balki shevaga oid so'zlar bilan ham boyitadi. Chunki, sof adabiy tilda yozilgan asar sun'iylikka yuz tutib, o'quvchini zeriktiradi. Shuning uchun ham ijodkor o'z badiiy tilini shevaga xos so'zlar, shoirona topilmalar yordamida boyitiladi.

She'riyatimizda shakliy qoliplarni parchalab, o'ziga xos uslub yarata olgan Faxriyor so'zlarni ma'lum bir shaklga keltirib, turli so'z o'yinlari va o'ynoqi misralarni hosil qilgan. Bu bilan badiiy asar g'oyasi hamma vaqt shakldan ustun turishini tushunib yetamiz. Shoir va yozuvchi, adabiyotshunos olim Ulug'bek Hamdam modernizm yo'nalishining asosiy xususiyatlarini sanar ekan quyidagi fikrlarni keltiradi: "Shaklda o'ziga xoslik. Yoki shaklda shaklsizlik, desa ham

³ Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (О.Шарафиддинов таржималари). – Т.: Маънавият, 2010, 125-бет



bo'ladi. Albatta, modern she'r ham o'ziga xos ritm va boshqa muayyan qoidalarga amal qilsagina yuqori ta'sirlilik darajasiga erishmog'i bor gap. Lekin uning uchun muhimi – shakl emas, bu she'r g'oyani shaklga emas, balki shaklni g'oyaga qurbon qilib yuboradi.”⁴ Shunday ekan, bizga shaklsizdek ko'ringan modern she'riyatda yaqqol ko'zga tashlanmaydigan o'ziga xos shakl bor. Bu goh bir band, goh misra, gohida esa so'zlar misolida yuzaga keladi. Quyida Faxriyorning so'z shakllaridan unumli foydalanib, jumлага o'ziga xos ma'no yuklagan misralaridan misollar keltiramiz:

Songa kirmas, kirib borar son –
oramizga, bir, ikki, uch kun...

Ushbu jumlada xalqimiz orasida ko'p ishlatiladigan “songa kirmoq” iborasi va uni teskari qo'llash orqali yangi mazmun hosil qilingan, ya'ni oradagi ayriliq masofasi songa kirmayapti – tartibga kelmayapti, aksincha orasiga son qo'shilib boryapti – bir, ikki, uch kun. “Xotira” nomli she'rda ham shunday so'z shaklidan foydalanib, go'zal ifoda hosil qilinganini guvohi bo'lamiz:

kalavaga uchib o'tmas kul ostidagi
qo'r
o'rtada yanglig' bor
o'tolmaydi
o't olmaydi

Kabob tayyorlanadigan qo'ra va u bilan bog'liq holatda ellik yoshning xotiralarini kalava u yoqdan bu yoqqa uchirib o'ynaydi, lekin ehtiroslar kul ostida qolgan qo'ra, o'rtadagi yanglig' – yillar uni nab u yoqqa o'tishiga imkon beradi, na o't olishiga qo'yadi. Mana shaklsizlikda shakl, mana tasvirdagi yangicha yondashuv, xotiraning benazir ifodasi. “Bo'g'zimda sirqirar tovush – qon” deb boshlanuvchi she'rda tovon so'zining ana shunday shakliy xususiyatidan mohirlik bilan foydalanilgan. Bir o'rinda “Yuragim tovondir – yorilar” shaklida keladi. Bunda yurak inson oyog'ining bir qismi tovonga qiyoslanib, u muhabbat azobidan yorilishi nazarda tutilgan bo'lsa. Keyingi jumla “Yuragim tovondir – to'layman” tarzida yoritiladi. Endi bu misrada yurakni muhabbat uchun tovon qilib to'lanishi ifodasi orqali tovon so'zining ma'no qatlamlari ochib berilgan.

Faxriyor shaxsiyatiga nazar solsak, u ingliz tilini yaxshi biladigan, zamonaviy texnika va texnologiyalardan xabardor va jamiyat bilan hamisha hamnafas insondir. Shoirning bu xususiyatlari she'rlarda o'z aksini topgan. Quyidagi satr kishi e'tiborini o'ziga tez jalb etadi:

Love-ullaydi ko'ksingda yurak,

⁴ Улуғбек Ҳамдам. Янгиланиш эҳтиёжи. – Т.: Фан, 2007, 89-бет



o'ttegisiz yonar ishq o'ti.

Ingliz tilida sevgi, muhabbat ma'nosini ifodalovchi love so'zining talaffuzi (lov)dan foydalanib, lovullamoq fe'lini hosil qilgan. O'tteg so'zi ham bizga begona emas. Hozirgi adabiy tilimizda dazmol deb qo'llanuvchi so'zning rus tilidagi shakli – *ytюр* etimologik jihatdan aslida turkiy so'z hisoblanadi, ya'ni o'tli yuk so'zidan rus tiliga o'zlashgan. O't so'zini takror qo'llamaslik uchun o'ylab topilgan ushbu jumla ijodkor mahoratidan dalolatdir. "Ayolg'u" dostonida "samo bor, samo' yo'q" jumlasini uchramiz. Bunday har ikkala so'z arab tiliga oid bo'lib, "samo" – osmon ma'nosini ifodalasa, "samo'" – eshitmoq degan ma'noni beradi. Bu bilan arab tilidan ham birmuncha xabardorligini namoyon etgan shoir, jumla mazmunini tushunish uchun o'quvchidan ham izlanuvchanlikni talab qiladi.

"She'r – shoir ijodining mahsuli. Shoir – jamiyatning bir parchasi, uning ijtimoiy, maishiy, madaniy hayot tarzidan ta'sirlanib yashagan inson. Bas, shunday ekan, jamiyat hayotidagi u yoki bu darajadagi o'zgarishlar shoir ijodida u yoki bu shakldagi janr va ifoda yo'sinlarini paydo qiladi."⁵ Darhaqiqat, shoir o'zi yashab turgan makon va zamondan ilhom oladi, o'z davridagi ijtimoiy muammolarni ko'tarib chiqadi va bu, albatta, ijodkorning badiiy tiliga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Faxriyor ijodida ham bu holat o'z ifodasini topgan. She'rlarda "ucell bilan beelinening arqog'i bo'sh to'lqinlaridan" yoki "wifi yoki email bilan uzatay desam" kabi zamonaviy qatlam so'zlaridan foydalanganligi shoirning zamon bilan hamnafas ekanligidan dalolat beradi. *Like, dislike, website, virtual to'y* kabi zamonaviy atamalar ishtirok etgan "Online hayot" nomli she'rida bugungi kun yutug'i bo'lgan internet va ijtimoiy tarmoqlar, aslida, insoniyat fojiasi ekanligi achchiq kulgu ostiga olingan. Zamona zayliga mos ravishda taraqqiyot bilan birgalikda tilimizga kirib kelayotgan so'zlarni qo'llash, ularni jamiyat hayotidagi ahamiyati bilan bog'liq xususiyatlarini yoritish ijodkor asarlarining badiiyatini belgilovchi omil hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlar yaxlit Faxriyor badiiy tilini tashkil etib, shu bilan bir paytda, shoirning ijodiy uslubini ham belgilab beradi. Shuningdek, shoir she'rlarini mutolaa qilish chog'ida so'zdagi qo'shimchalarga munosabat o'zgarganini ko'ramiz va natijada, *senlana olmoq, kelinding, izlam, sezim, mungrarim, qolmasingga* kabi so'zlar she'rda o'z ifodasini topdi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Faxriyor ijodida sof turkiy so'zlar bilan bir qatorda tilimizga o'zga tillardan hozirgi kunda kirib kelayotgan zamonaviy so'zlar uyg'un holda qo'llanilishi ijodkor mahoratini namoyon etadi.

⁵ Улуғбек Ҳамдам. Бадий тафаккур тадрижи. – Т.: Янги аср авлоди, 2002, 7-бет



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ҳотам Умуров. Адабиёт назарияси. – Т.: Шарқ, 2002.
2. Усмон Азим. Сўнгсўзлар. – Т.: ИЛМ-ЗИЁ-ЗАКОВАТ. 2020.
3. Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида (О.Шарафиддинов таржималари). – Т.: Маънавият, 2010.
4. Улуғбек Ҳамдам. Янгиланиш эҳтиёжи. – Т.: Фан, 2007.
5. Улуғбек Ҳамдам. Бадий тафаккур тадрижи. – Т.: Янги аср авлоди, 2002.